

**TALIM FALSAFASI-TALIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY
KONSEPTUAL ASOSI**

Qundizaliyeva Safiya Xolmira qizi

*CHDPU Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Tarix va falsafa yo`nalishi
Erkin izlanuvchisi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada falsafa fanining umumiy kelib chiqishi va falsafiy ta’lim haqida soha olimlarining olib brogan ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqgan holda xulosalar jamlanga. Ta’lim falsafasi tushunchasiga umumiy izoh berilib, zamonaviy ta’lim jarayonida ushbu fan va sohaning konseptual ahamiyati tadqiqi etilgan.*

Kalit so’zlar: *ta’lim-tarbiya, yangi O’zbekiston, uchinchi rennesans falsafa ta’limi, ta’lim falsafasi, borliq, innovatsiyalar, ijtimoiy hayot*

Аннотация: В данной статье обобщены выводы, сделанные на основе результатов научных исследований, проведенных учеными данной области Об общем происхождении философской науки и философском образовании. Дается общий комментарий к понятию философии образования, исследуется концептуальная значимость данной науки и отрасли в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: *образование-образование, новый Узбекистан, философия третьего возрождения, философия образования, бытие, инновации, социальная жизнь*

Annotation: *This article summarizes the general origins of philosophy and conclusions about philosophical education from the results of the scientific research of the scientists of the field, led brogan. A general explanation of the concept of the philosophy of education is given and a study of the conceptual significance of this science and field in the process of modern education is carried out.*

Keywords: *Education, New Uzbekistan, third Renaissance philosophy education, philosophy of education, being, innovation, social life*

Hozirgi vaqtida Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarning asl mohiyati – milliy qadriyatlarning ustuvorligini ta’minlash emas, balki, jahon ilm-fani hamda ta’lim tizimi sohasida erishilgan ulkan yutuqlar va milliy o’zlikni anglash asosida, yangi davr rivojlanish taraqqiyotini asoslab beradigan ta’lim tizimini yaratishdan iborat. Bu borada, falsafani o’qitish va yoshlarda falsafiy tafakkurni yuksaltirish muammosini yangicha paradigmalar asosida hal etish zarurati yuzaga keladi. Shu bois, asrlar davomida jahon falsafasi, xususan milliy falsafiy qadriyatlar asosida yoshlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko’nikmalarini shakllantirishni uzliksiz ta’lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning milliy g’oya asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’lim falsafasi va falsafiy ta’limni rivojlantirishda Sharq allomalarining fundamental asarlarini ilmiy o’rganish

muhim ahamiyatga ega.³² Shu ma'noda Prezident Sh.M.Mirziyoev "Fundamental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish masalasi biroz e'tiborimizdan chetda qolgani bugun yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki fundamental tadqiqotlar jadal rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha boshqa davlatlardan sezilarli ravishda ilgarilab borayotganini ko'rib turibmiz. Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo'nalishida qo'lga kiritilgani tasodifiy emas. Shuning uchun endilikda fundamental fanlarni har tomonlama qo'llabquvvatlash, sohani iqtidorli yosh kadrlar bilan ta'minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda"³³ deb ta'kidlaydi.

"Mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqr bilimga ega bo`lgan Vatanparvar yoshlarni tarbiyalash" ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasi etib belgilangan.³⁴ Har tomonlama chuqr va keng fikrlaydigan yetuk kadrlar – kelajak yaratuvchilari sifatida gavdalanadilar. Jamiyat a'zolarining erkin va to`g`ri, asosli tafakkur yuritish ko`nikmalarini yuksaltirishni, shu orqali ibnsonlarni to`g`ri yo`lga yetaklovchi fan – bu falsafa fani hisoblanadi. Bir fanning taraqqiyoti jarayionida uning tarkibidan boshqa fanning ajralib chiqishi bu – fanlar differensiatsiyasi hisoblanadi. Masalan: biologiya tarkibidan botanika, odam va uning salomatligi(anatomiya), zoologiya, ixtiologiya, entomologiya va hk.³⁵

2500 yillik tarixga ega bu fanning predmetini insonlarni qiziqtira oladigan barcha obyektiv va subyektiv moddiy hamda abstrakt (mavhum) olam jarayonlari tashkil qiladi. "Fanlar otasi" nomi bilan qadriyatlar sirasiga kiradigan bu fan o`z tarixi davomida nafaqat o`z predmetini o`rganish uchun, qolaversa barcha soha uchun zamonasi zaylidan kelib chiqib samarali va munosib metodlarni ishlab chiqqan, amaliyotga tadbiq etilishini ta'minlab kelgan. Metod muammolari bilan metodologiya fani shug`ullansa-da, bu umumiy masala sifatida falsafa fanining ham asopsiy predmetlari doirasi(gnoseologiya-bilish nazariyasi sohasi)ga ham taaluqli hisoblanadi. Insoniyat o`z tarixi davomida erishgan turli sohalardagi yutuqlarni integratsiyalash, sinergetika yutuqlarini keng jalg qilish barcha soha uchun, ayniqsa jamiyat ta'lim-tarbiya tizimi uchun juda muhimdir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida falsafiy ta'limni rivojlantirishda Sharq renessansi davri allomalarining ilmiy-falsafiy merosini o`rganish uchun xorij, xususan, G'arb

³² Мухтаров, Уткиржон Муталибжанович ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА ШАРҚ РЕНЕССАНСИ ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИНИНГ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИННИГ ЎРНИ // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekiston-tara-iyotida-shar-renessansi-davri-allomalarining-ilmiy-falsafiy-merosining-rni> (дата обращения: 16.03.2023).

³³ Mirziyoev, Sh.M.(2017). Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent, O'zbekiston, 592 b. (Mirziyoev, Sh.M. (2017). We will continue our national development path with determination and bring it to a new level. Tashkent, Uzbekistan, p.592.)

³⁴ "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to`g`risida"gi davlat dasturi. 2014

³⁵ Muxriddin Abdimuratovich Usmanov FALSASA FANINI O'QITISHDA TA'LIM KLASTERINING AHAMIYATI // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/falsafa-fanini-o-qitishda-ta-lim-klasterining-ahamiyati> (дата обращения: 16.03.2023).

olimlari tomonidan bu yo‘nalishda erishilgan yutuqlar, boy tajriba bilan tanishmasdan turib, ma’lum bir natijaga erishish qiyin.

Hozirgi davr sivilizatsiyasi insoniyat tarixiy taraqqiyoti darajasini va ta’limiy falsafa kategoriyalarining ilmiy bilimlar rivojini aniqlash mezonlarini qayta baholashni taqozo qilmoqda. Shu talabga asosan, Tomas P.Flint, Maykl K.Rey, Ali Akbar Vilayati, Ardarkani Rizo Dovari, Berns, Birindjkar Rida, Vundt V., Oldenberg G., Gold, Limen Oliver, A.Korben, Seyyid Xuseyn Nasr, M.Mutaxxari, A.R.Ubudiyyat, Chittik Uilyam va boshqa shu kabi olimlarning asarlarida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan³⁶. Shuningdek, juda ko‘plab mintaqalarda ayni shu yo‘nalishda ilmiy faoliyat olib boruvchi markazlar ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Angliyaning Birmingham shahrida Islom va O‘rta Sharq tadqiqotlari markazi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu markaz Islom dini falsafiy asoslarini o‘rganishga ixtisoslashgan.

Ushbu markaz Angliyadagi Birmingham universitetining “Falsafa va dinshunoslik bo‘limi”da joylashgan bo‘lib, mazkur markazda Sharq qo‘lyozmalari bo‘limi ham mavjud. Bu yerda Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimning eng qadimgi qo‘lyozmasi saqlanadi. Qo‘lyozmaning yoshini bilish uchun Oksford laboratoriyasida radiouglerod usuli yordamida tadqiq qilgan olimlar qo‘lyozma 568-645-yillar orasida yozilganini aniqlashga erishganlar. Bu esa Qur’onning qo‘lyozma shaklida yozilgan eng qadimiy nusxalaridan biri shu davrgacha yaxshi saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Ushbu markazda ilmiy tadqiqotlar olib borishga asoslangan magistratura yo‘nalishi ochilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib borishni xohlovchi tadqiqotchilar uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan. Ushbu o‘quv dasturlarida islam bilimlarini o‘rganish hamda tadqiq etish bilan birga islam tarixi va falsafiy ta’limotlar chuqur o‘rganilib boriladi. Bu borada o‘rta asr Sharq allomalarining falsafiy ta’limotlari G‘arb ilm-fani taraqqiyotiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazganini sezish mumkin.³⁷

Shuningdek, X-XI asrlarda Sharq falsafasining shakllanishi bevosita qadimgi dunyo falsafasi, avvalo Arastu va Aflatunning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ta’sirida yuz bergen. Shuning uchun ham falsafiy adabiyotlarda “Sharq peripatetizmi” terminiga alohida e’tibor qaratiladi. Sharq peripatetizmi vakillari qatoriga Ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Tufayl va Ibn Rushd kabi faylasuflarni kiritish mumkin. Aynan shu buyuk faylasuflar tomonidan yozib qoldirgan asarlari orqali o‘rta asrlarda G‘arb falsafiy tafakkuri o‘zining rivojlanish davrini boshlagan. Ushbu dalillardan kelib chiqib, Sharq va G‘arb falsafasi ildizlari bir ekan degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki Sharqda ham, Yevropada ham falsafiy ta’limotlar o‘zining

³⁶ Читтик Уильям.(1995). В поисках скрытого смысла. Суфийский путь любви. Духовное учение Руми. Серия: Ex oriente lux. Перевод с английского и арабского, составление и предисловие М.Т.Степанянц. Москва, НИЦ “Ладомир”, 544 с. (Chittik Wilhelm, K. (1995). In search of hidden meaning. Sufi way of love. The spiritual teachings of Rumi. Seriya: Ex oriente lux. Translation from English and Arabic, compilation and preface by M.T. Stepanyants. Moscow, “Ladomir”, p.544.)

³⁷ Saifnazarov, I., Muhtarov, A., Sultonov, T., & Tolibov, A. (2020). Religious tolerance, unity of knowledge and faith issues highlighting in Imam Bukhari Hadiths. International Journal of Advanced Science and Technology 71-b

tushunchalar olami, muammolarni tahlil qilish, ularni yechish usullarini topishdagi falsafiy tafakkurning butun bir jihatni hamda xususiyatlari bir-birlaridan jiddiy farq qilgan. Bu esa ko'proq Sharq falsafasi vakillariga G'arb falsafiy qarashlarini tanqidiy o'rghanishga imkon bergan.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqot ishlarida asl manbalar asosida Forobiy, Ibn Rushd, Ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy singari sharq mutaffakkirlarining falsafiy qarashlari ancha batafsil o'rghanilgan. O'zbek faylasuflari va boshqa bir qator tadqiqotchilar buyuk allomalarning falsafiy bilimlar taraqqiyoti tarixiga munosib hissa qo'shganliklarini asosli yoritib bergenlar³⁸. Bizning nazarimizda o'tmish ajdodlar qarashlarini shunchaki takrorlash bilan jamiyat hayotida, kishilar ongida sodir bo'layotgan evrilishlarga muvofiq keluvchi falsafiy ta'limga rivojlantirib bo'lmaydi. Buning uchun jahon fasafasidagi yangilanishlardan xabardor bo'lish va mustaqil fikrlash hamda ma'lum bir yondashuvga alohida e'tibor berish talab etiladi.

A. L. Kaziberdiev, S. Serebryakov, Azkul Karim, Alber Nasriy kabi sharqshunoslar ushbu faylasuflarning risolalarini tarjima etish, har bir tushunchaga alohida sharh berish ustida jiddiy ilmiy ishlar olib borib, ular asarlarining tarjima lug'atini ham tuzganlar. Ayni paytda, Sharq renessansi davri allomalarining ilmiy-falsafiy merosini o'rghanish bag'rikenglik g'orlari nuqtai-nazaridan янги ilmiy dalillar orqali aniqlash hamda ko'rsatib berishda, Z.Munavvarov, A.Hasanov, M.Imomnazarov, Z.M.Husnidinov, R.M.Bahodirovlarning ilmiy tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish ham maqsadga muvofiqdir³⁹. Lekin, hozirgacha O'zbekiston, Rossiya, G'arb olimlari, faylasuflarining Sharq renessansi davri allomalarining ilmiyfalsafiy merosini o'rghanish bo'yicha amalga oshirgan ishlarini яxlit bir holda maxsus tahlil etmaganlar.

Zamonaviy ta'limga ijtimoiy-madaniy tendentsiyalari ko'p jihatdan ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, ammo ta'limga falsafasi jamiyatni takomillashtirish imkoniyati sifatida uning rivojlanishining madaniy funktsiyasini saqlab qolishi mumkin va zarurdir. Falsafiy fanlar ana shunday salohiyatni asrabavaylash va rivojlantirishning muhim sohasidir. Shu bilan birga, ta'limga strategiyalari kasbiy va pedagogik tayyorgarlik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Munozarali tendentsiyalardan biri bu ta'limga xizmatlarining sifati va tabiatini masalasidir.⁴⁰

O'qituvchilar malakasini oshirishni boshqarish masalasida, shu nuqtai nazardan qaraganda, boshqaruv nazariyasidagi umumiyligi yondashuvlarni mahalliy ta'limga boshqarishning mavjud an'analari bilan, aksilogik an'analari bilan uyg'unlikda tahlil

³⁸ Болтаев, М.Н.(2002). Абу Али ибн Сина — великий мыслитель, ученый энциклопедист средневекового Востока. Москва "Сампо", 400 с. (Boltaev, M.N. (2002) Abu Ali ibn Sina - great thinker, an encyclopedist of the srednevekovogo Vostoka. Moscow, Sampo, p.400)

³⁹ Hasanov, A.(2001). Qadimgi Arabiston va ilk islom. Johiliya asri // Tahrir hay'ati: H. Karomatov, N. Ibrohimov, Z. Husnidinov va boshq./ Toshkent, Toshkent islom universiteti, 256 b.

⁴⁰ Ganiyeva, Muborak YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TA'LIM FALSAFASI // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekiston-taraqqiyotida-ta-lim-falsafasi> (дата обращения: 16.03.2023).

qilish ayniqsa muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bizning pozitsiyamiz ta'limning globallashuvi sharoitida bir qator sabablarga ko'ra sezilarli tanazzulga yuz tutayotgan o'qituvchi ta'limida insonparvarlik yondashuvining qadriyatiga asoslanadi. Biroq, tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, umumiy ijtimoiy kapital manbai sifatida shaxsga qaratilgan ijtimoiy boshqaruv nazariyasining jahon an'analari ham mavjud. O'qituvchi shaxsini kasbiy tayyorgarligini boshqarishda qadriyat asoslarini saqlab qolishda ana shu yondashuvlarni hisobga olishni muhim deb bilamiz. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'limni keskin raqobat sharoitiga soluvchi yagona ta'lim makonini yaratish maqsadida oliy ta'limning milliy tizimlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim tendentsiya madaniy-tarixiy davomiylik g'oyasini yashirmasligi kerak. Ushbu tartibning ta'lim falsafasi innovatsion yechimlar bilan uyg'unlashgan madaniy an'analar uyg'unligiga qaratilgan. Ijtimoiy boshqaruvning jahon tajribasiga murojaat qilish mahalliy ta'lim strategiyalari tamoyillarini ta'kidlashga yordam beradi. Shu maqsadda 19-asr oxiri 20-asr boshlarida ijtimoiy hayotning turli sohalarini ratsionalizatsiya qilish ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarish nazariyalarining paydo bo'lishiga yordam bergenligini ta'kidlaymiz. Ushbu boshqaruvning yondashuvlari shu davrda ommaviy xususiyatga ega bo'lgan, bir vaqtning o'zida foydali investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish sohasiga aylanigan ta'limga ham to'xtaldi. Bugungi kungacha ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq sifat o'zgarishlarini boshdan kechirishda davom etmoqda. Globalashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'limning jamiyat madaniyatini qayta ishlab chiqarish sohasi maqomini yo'qotish xavfiga olib keladi. Nafaqat ta'lim falsafasi, balki madaniyat nazariyasining ko'p jihatdan fan va amaliyat sifatidagi pedagogika masalasi bu masalada "sof" ta'lim xizmatlari sohasiga aylanmasdan asosiy o'rnlarni saqlab qolish uchun ta'lim sub'ektlarining ko'lami va imkoniyatlarini bilishdir. Javoblarni ham jamiyat, ham uning madaniyati, ham uning o'ziga xos qismi sifatidagi ta'lim nuqtai nazaridan aniqlash kerak, deb hisoblaymiz. Ba'zi javoblarni boshqaruv nazariyasidan ham olish mumkin. Demak, menejment nazariyasida ta'lim uchun yaqqol ahamiyati bor. E. Mayoning insoniy munosabatlар maktabi alohida ajralib turadi.⁴¹

Olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, moslashuvchan va sifatli siyosatni qurishda jamiyat madaniyati nazariyasi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim falsafasi zarur. Ta'limni boshqarishning bunday falsafasining asosiy pozitsiyalaridan biri pedagogik tayyorgarlikdagi madaniy muvofiqlik tamoyilidir. Ushbu an'ananing kelib chiqishini rus tafakkuri tarixida kuzatish mumkin va kerak, bu erda K.D. Ushinskiy, N.F. Bunakov, A.N. Korf. Olim-pedagoglar tashkiliy-pedagogik sharoitlarda insonparvarlik komponentiga katta e'tibor berib, o'qituvchiga ta'lim jarayonining markaziy shaxsi sifatida ahamiyat bergenlar. Ular birinchi bo'lib ta'limni bir xil

⁴¹ Хедоуори Ф., Ал'берт М. и др. Основи менеджмента. М.: ДЕЛО. 199 с.

boshqaruvga muhtoj bo'lgan yaxlit tizim sifatida qabul qilishgan. S.I. Gessen ta'lismi maqsadlarini jamiyat tuzilishi bilan bog'laydi.⁴²

Sog'lom zurriyot, ya'ni jismoniy va ma'naviy yetuk avlodning shakllanishi va uning o'z imkoniyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur tizimning yaratilganligi, ta'lismi va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovasiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim. Bunda esa ta'lismi falsafasi nazariy va amaliy jihatdan hal qiluvchi axboriy va ijtimoiy-madaniy ta'minot fumksiyasini bajaradi.

Xulosa qilib aytsak, ta'lismi falsafasi o'z funksiyasi va konseptual asosiga ko'ra ta'lismi insonparvarlashtirish insonning ma'naviyatini, tafakkuri kengligini egallashga, o`zini o'rabi turgan dunyo haqida to`liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Umumjahon madaniyati asosida shaxsning barcha tomonlari uning sub'ektiv ehtiyojlari va ta'lismi darajasi va salohiyati bilan bog'liq ob'ektiv sharoitlarini hisobga olgan holda muvaffaqiyatli rivojlanadi. Ta'larning falsafiy nuqtai nazaridan ham realistic materialism nuqtai nazaridan ham milliy davlatchilik asoslaridan ajralmasligi ta'larning milliy yo`nalishini belgilaydi. Rivojlanish vektori oldinga yo`naltirilishi kerak, lekin ayni paytda tarix va xalq an'analariga asoslanishi kerak. Ta'lismi milliy qadriyatlarni saqlash va boyitishda yordam berishi kerak. Zamonaviy jamiyatda ta'lismi tizimi ochiq bo`lishi kerak. Ta'lismi maqsadlari nafaqat davlat buyurtmasi asosida shakllantirilishi, balki o`quvchilar, ularning ota-onalari va o`qituvchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib kengaytirilishi kerak. Ta'lismi dasturlari ochiqlik tamoyiliga bo`ysunadi. Ular asosiy bilim yadrosini o'z ichiga olishi va hisobga olingan holda osongina to`ldirilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M Mirziyoev, "Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz". 1-jild. Toshkent, O'zbekiston 2017, 592 b.
2. "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to`g`risida"gi davlat dasturi. 2014
3. Мухтаров, Уткирjon Муталибжанович ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА ШАРҚ РЕНЕССАНСИ ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИНИНГ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekiston-tara-iyotida-shar-renessansi-davri-allomalarining-ilmiy-falsafiy-merosining-rni> (дата обращения: 16.03.2023).
4. Muxriddin Abdimuratovich Usmanov FALSAFA FANINI O`QITISHDA TA'LIM KLASTERINING AHAMIYATI // Academic research in educational sciences.

⁴² Лелеко В. В. Пространство повседневности как предмет кул'турологического анализа: автореф. дис. д-ра кул'турологии. СПб., 2002. 35 с.

2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/falsafa-fanini-o-qitishda-ta-lim-klasterining-ahamiyati> (дата обращения: 16.03.2023).

5. Ganiyeva, Muborak YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TA'LIM FALSAFASI // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekiston-taraqqiyotida-ta-lim-falsafasi> (дата обращения: 16.03.2023).

6. Читтик Уильям. (2015). В поисках скрытого смысла. Суфийский путь любви. Духовное учение Руми. Серия: Ex oriente lux. Перевод с английского и арабского, составление и предисловие М.Т.Степанянц. Москва, НИЦ “Ладомир”, 544 с. (Chittik Wilhelm, K. (1995).

7. Saifnazarov, I., Muhtarov, A., Sultonov, T., & Tolibov, A. (2020). Religious tolerance, unity of knowledge and faith issues highlighting in Imam Bukhari Hadiths. International Journal of Advanced Science and Technology 71-b

8. Болтаев, М.Н. Абу Али ибн Сина — великий мыслитель, ученый энциклопедист средневекового Востока. Москва "Сампо", 2002, 400 с.

9. Hasanov, A. Qadimgi Arabiston va ilk islom. Johiliya asri // Tahrir hay'ati: H. Karomatov, N. Ibrohimov, Z. Husnidinov va boshq./ Toshkent, Toshkent islom universiteti, 2001, 256 b.

10. Хедоуори Ф., Ал'берт М. и др. Основи менеджмента. М.: ДЕЛО. 199 с

11. Лелеко В. В. Пространство повседневности как предмет кул'турологического анализа: автореф. дис. д-ра культурологии. СПб., 2002. 35 с

12. Google.com

13. Yandex.ru

14. Cyberleninka.ru

15. Ziyonet.com

16. Refsik.org

17. Fayllar.org